

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KONSTITUSION NAZORAT TO'G'RIDA

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (asosiy qonuni)ga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq mazkur Qonunning nomidagi hamda matnidagi "O'zbekiston SSR" degan so'zlar tegishli kelishikdagi "O'zbekiston Respublikasi" degan so'zlar bilan almashtirilgan. Shuningdek, "Qoraqalpog'iston ASSR" degan so'zlar tegishli kelishikdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi" degan so'zlar bilan almashtirilgan.

LexUZ sharhi

Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining 1993-yil 6-maydagi 821-XII-son qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan.

I. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. O'zbekiston Respublikasida konstitutsion nazoratning maqsadlari

O'zbekiston Respublikasida konstitutsion nazorat davlat organlari va jamoat tashkilotlari hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa — Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga mos bo'lishini ta'minlash, shaxsning konstitutsion huquqlari va erkinliklarini, O'zbekiston Respublikasi xalqlarining huquqlarini, sovet jamiyatining demokratik negizlarini muhofaza qilish maqsadida ta'sis etilgan.

2-modda. Konstitutsion nazorat organlari

O'zbekiston Respublikasida konstitutsion nazoratni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti amalga oshiradi.

3-modda. Konstitutsion nazorat organlari faoliyatining asosiy prinsiplari

O'zbekiston Respublikasida konstitutsion nazorat organlari sotsialistik qonunchilik, kollegialik va oshkoralik asosida ish olib boradi.

O'zbekiston Respublikasida konstitutsion nazorat organlari mustaqildirlar va faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa — Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga ham bo'ysunadilar.

Konstitutsion nazorat organlari faoliyatiga hech qanday aralashuvga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

4-modda. O'zbekiston Respublikasida konstitutsion nazorat to'g'risidagi qonunlar

O'zbekiston Respublikasida konstitutsion nazoratning vazifalari, uni tashkil etish va amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu Qonun bilan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa — shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qoraqalpog'iston Respublikasida konstitutsion nazorat to'g'risidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

II. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUSION NAZORAT KOMITETINING HAY'ATI VA UNI SAYLASH TARTIBI

5-modda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetining hay'ati

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti siyosat va huquq sohasi mutaxassislaridan komitet raisi, rais o'rinbosari va Qoraqalpog'iston Respublikasi vakilini qo'shib hisoblaganda komitetning 9 a'zosidan iborat qilib saylanadi.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetini saylash

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetining a'zolari, raisi, rais o'rinbosarini O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti o'n yil muddatga saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetining shaxsiy hay'ati to'g'risidagi taklifni O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Raisi taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan shaxs saylangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti faoliyatida uzluksizlikni ta'minlash maqsadida har besh yilda uning hay'atining yarmi yangilanadi.

Komitetning yangi saylangan a'zolari saylangan vaqtlaridan boshlab o'z lavozimlarini egallaydilar.

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetiga saylangan shaxslarning qasamyodi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Raisi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetiga saylangan shaxslarni qasamyod qildiradi.

Qasamyod matni: "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti a'zosining zimmamga yuklangan vazifalarni vijdonan bajarishga, bunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining barcha qoidalariga bo'ysunishga va ulardan boshqa hech narsaga bo'ysunmaslikka tantanali qasamyod qilaman".

8-modda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetiga saylangan shaxsning vakolatlarini muddatidan oldin to'xtatish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetiga saylangan shaxsning vakolatlari: uning iste'foga chiqish to'g'risidagi iltimosiga binoan; salomatligi o'z vazifalarini bajarishga to'sqinlik qiladigan darajada yomonlashganligi munosabati bilan; qasamyodni buzgan taqdirda; sudning unga nisbatan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirishi munosabati bilan muddatidan ilgari to'xtalishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti hay'atiga kiruvchi shaxsning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish to'g'risidagi qarorni O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Raisi taqdimnomasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti sessiyalari oralig'idagi davrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetiga saylangan shaxsning vakolatlari u qasamyodni buzgan yoki sudning unga nisbatan chiqargan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda to'xtatib turiladi. Vakolatni to'xtatib turish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Raisi tomonidan qabul qilinadi.

9-modda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetiga qo'shimcha ravishda saylov o'tkazish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti hay'atiga kirgan shaxs muddatidan oldin chiqib ketgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti vakolatning qolgan muddatiga komitet hay'atiga boshqa shaxsni qo'shimcha ravishda saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti hay'atiga kirgan shaxs uning vakolat muddati tugashiga bir yildan kamroq vaqt qolganda chiqib ketgan taqdirda uning o'rniga komitetga yangi a'zo saylanmaydi.

III. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTION NAZORAT KOMITETI VAKOLATLARI VA UNING FAOLIYATI TARTIBI

10-modda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti nazorat qiladigan hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti muhokamasiga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va boshqa hujjatlarning loyihalari;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti tomonidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa hujjatlar;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini qarab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Raisining qarorlari va farmoyishlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari;

O'zbekiston Respublikasi Ministrlar Sovetining qarorlari va farmoyishlari;

O'zbekiston Respublikasining ratifikatsiya qilish yoki tasdiqlash uchun taqdim etilgan xalqaro shartnoma majburiyatlari va o'zga majburiyatlari;

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining rahbariy tushuntirishlari;

O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat hakamining normativ tusdagi hujjatlari, shuningdek boshqa davlat organlari va jamoat tashkilotlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq prokuror tomonidan nazorat qilinmaydigan normativ huquqiy hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yoki muvofiq emasligini nazorat qilib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetining nazorat qilish vazifalari sudlarning hukmi va boshqa qarorlariga, tergov, prokuratura davlat hakamligi organlarining grajdanlik, jinoiy, ma'muriy ishlariga doir qarorlariga taalluqli emas.

11-modda. Kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari qabul qilgan hujjatlar Konstitutsiyasiga muvofiqligi xususida ular orasida kelishmovchiliklar chiqqan hollarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti istalgan bahslashuvchi tomonning tashabbusi bilan ana shu kelishmovchiliklarni ushbu Qonunda belgilab qo'yilgan qoidalarga va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetining ish tartibiga muvofiq ravishda ko'rib chiqadi.

12-modda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat ko'rib chiqishi uchun masalalarni kiritish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti:

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining topshirig'iga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetida ko'rib chiqish uchun kiritilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va o'zga hujjatlari loyihalari xususidagi;

2) O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari kamida beshdan bir qismining, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Raisining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Sovetining taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti qabul qilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va o'zga hujjatlar xususidagi;

3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining topshirig'iga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari xususidagi;

4) O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining topshirig'i, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Raisining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Sovetining takliflariga binoan — Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari xususidagi;

5) O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti topshirig'i bilan O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlarining kamida beshdan bir qismining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Sovetining takliflariga binoan — O'zbekiston Respublikasi Ministrlar Sovetining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnoma majburiyatlari va boshqa majburiyatlari xususidagi;

6) O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining topshirig'iga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Prezidiumi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Raisining O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti doimiy komissiyalari, O'zbekiston Respublikasi Ministrlar Soveti, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Sovetining, O'zbekiston Respublikasi Xalq nazorati komiteti, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Prokurori, O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat hakami, jamoat tashkilotlari respublika organlari va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining takliflariga binoan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq prokurorlik nazorati amalga oshirilmaydigan boshqa davlat organlari va jamoat tashkilotlarining normativ huquqiy hujjatlari xususidagi masalalarni ko'rib chiqish uchun qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlarining, O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti tomonidan

tuziladigan yoki saylab qo'yiladigan boshqa organlarning hujjatlari, xalq deputatlari mahalliy Sovetlarining qarorlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga mosligi yoki mos emasligi to'g'risidagi masalani o'z tashabbusi bilan ko'rib chiqishga ham haqlidir.

Basharti, davlat boshqaruv organlari, sud, prokurorlik va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi va qonunni qo'llovchi organlar, jamoat tashkilotlari va grajdanlar qonun yoki o'zga normativ hujjat bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'rtasida tafovut borligini aniqlasalar, bu haqda masalani O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetida ko'rib chiqish uchun topshirishga vakolatli bo'lgan organga xabar qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti o'z vakolatiga mos kelmagani uchun ayrim topshiriqlar, takliflar va murojaatlarni rad etishga haqlidir.

13-modda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetining o'z tashabbusi bilan masalalarni ko'rib chiqishga qabul qilishi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti Raisi, raisining o'rinbosari va Komitet a'zolari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti o'z tashabbusi bilan ko'rib chiqish uchun masala kiritish huquqiga egadirlar.

Masalani ko'rib chiqish to'g'risidagi qaror majlisda qatnashayotgan komitet a'zolari ko'pchiligining ovozi bilan qabul qilinadi.

14-modda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetining Raisi va Rais o'rinbosari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetining Raisi Komitet ishiga umumiy rahbarlik qiladi, o'z tashabbusi bilan yoki Komitetning kamida uch a'zosining taklifiga ko'ra komitetning majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi, shuningdek, ushbu Qonun bilan uning zimmasiga yuklatilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komiteti Raisining o'rinbosari komitet Raisi bergan vakolatga muvofiq uning ba'zi vazifalarini bajaradi va Rais bo'lmagan hollarda yoki u o'z vazifalarini bajarish imkoniyatiga ega bo'lmaganda uning o'rnini egallab turadi.

Komitet Raisi va uning o'rinbosari o'z vazifalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmagan hollarda Rais yoki uning o'rinbosari o'z vazifalarini bajarish uchun qaytib kelgunga qadar yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti yangi Rais va rais o'rinbosarini saylagunga qadar komitet o'z ichidan rais sifatida ish olib boradigan muvaqqat Raisni saylaydi.

15-modda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetining a'zolari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetining a'zosi komitet ko'rib chiqayotgan barcha masalalarda hal qiluvchi ovoz huquqiga egadir.

Komitet a'zosi Komitet o'zi ko'rib chiqayotgan hujjatlar va hujjat loyihalarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga mosligi yoki mos emasligi to'g'risidagi masala yuzasidan xulosa qabul qilgunga qadar, komitet a'zosi bu haqdagi o'z fikrini ko'pchilik oldida aytish huquqiga ega emas.

16-modda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetida masalani ko'rib chiqishga tayyorlash

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsion nazorat komitetining Raisi masalani komitet majlisida ko'rib chiqishga tayyorlashni komitetning bir yoki bir necha a'zosiga topshiradi va topshiriqni bajarish muddatini belgilab qo'yadi, bu muddat olti oydan oshmasligi kerak.

Masalani tayyorlash davomida komitet a'zolari:

davlat organlari va jamoat tashkilotlaridan ushbu masalaga taalluqli har qanday hujjatlarni va boshqa ma'lumotlarni talab qilib olishga;

tegishli davlat organlari va jamoat tashkilotlari mansabdor shaxslarining izohlarini tinglashga; maslahatchi sifatida olimlarni va amaliyotchi xodimlarni jalb qilishga haqlidirlar.

Davlat organlari va jamoat tashkilotlari mansabdor shaxslarining talab qilinayotgan hujjatlar va o'zga ma'lumotlarni komitetga taqdim etishdan bosh tortish, shuningdek, bilaturib soxta ma'lumot berishi qonunga muvofiq javobgarlikka tortilishlariga sabab bo'ladi.